
Mustaqillik oqshomlari: ENG ULUG', ENG AZIZ AYYOM KO'TARINKI RUHDA NISHONLANMOQDA

"Beshbola" mahalla fuqarolar yig'inida o'tkazilgan konsert dasturida el suygan san'atkorlar Otabek Muhammadzohid va Malika Egamberdiyeva ijrosidagi kuy-qo'shiqlar hamda mushakbozlik tadbirga ko'tarinki va bayramona kayfiyat bag'ishladi. Bayram tadbiri yorqin tomosha - beshbolaliklarning jo'shqin va xurram kayfiyatini yanada orttirgan mushakbozlik bilan yakunlandi.

"Mustaqillik oqshomi" bayram tadbirida 10 nafar 100 yosh bilan yuzlashgan keksa-nuroniylar, 20 nafarga yaqin mahalla oqsaqollari, faol xotin-qizlar, 5 nafar xalqaro sport musobaqalar g'oliblari taqdirlanishdi. Ikki nafar yoshlarning kontrakt to'lovlari uchun pul mablag'lari berildi. 4 ta oilaga farzandlari uchun maktab formalari sotib olish uchun 1 mln. so'mdan moddiy yordam ajratildi. Shuningdek, bir nafar bemorligi bo'lgan fuqaroga nogironlik aravachasi topshirildi.

2023-08-28 11:20:29